






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 288** tani tashkil etib, 2022- yil 1- apreliga nisbatan **857** taga kamaygan (kamayish sur'ati **20,7** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **55** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 284** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **1 049,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **102,4** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **87,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **117,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **962,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **103,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,5** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 049,3</b>	<b>102,4</b>	<b>87,1</b>	<b>117,2</b>	<b>962,2</b>	<b>101,3</b>
<b>Guliston sh.</b>	401,7	104,3	35,4	100,8	366,3	104,6
<b>Shirin sh.</b>	13,1	94,8	0,0	57,2	13,0	95,0
<b>Yangiyer sh.</b>	99,8	101,1	5,0	87,2	94,8	101,9
<i>tumanlar:</i>						
<b>Boyovut</b>	67,7	106,1	23,6	122,9	44,0	98,8
<b>Guliston</b>	52,4	95,6	2,9	153,3	49,5	93,5
<b>Mirzaobod</b>	77,7	111,0	5,2	181,4	72,5	108,0
<b>Oqoltin</b>	27,4	102,5	0,8	101,3	26,6	102,6
<b>Sardoba</b>	42,6	112,8	0,5	85,0	42,1	113,2
<b>Sayxunobod</b>	36,2	84,7	6,1	4,7 m.	30,2	72,7
<b>Sirdaryo</b>	198,9	100,7	5,8	90,0	193,1	101,1
<b>Xovos</b>	31,8	95,6	1,8	4,9 m.	30,1	91,3

2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Sardoba (**112,8** %), Mirzaobod (**111,0** %) va Boyovut (**106,1** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-mart, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **109,2 %** ni yoki **671,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – mart oylari)



2023- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **38,3 %** bilan **401,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,2 %** bilan **13,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **962,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **101,3** % ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,7** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **17,2** % ga o'sdi va **87,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,7 %**), Sardoba (**98,9 %**) va Oqoltin (**97,2 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Boyovut (**34,9 %**), Sayxunobod (**16,8 %**), Guliston sh. (**8,8 %**) hududlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 167,4</b>	<b>100,4</b>
Guliston sh.	4 158,1	101,6
Shirin sh.	677,6	93,8
Yangiyer sh.	2 128,1	97,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	495,5	104,3
Guliston	670,9	93,3
Mirzaobod	981,6	108,2
Oqoltin	497,4	100,7
Sardoba	613,5	111,2
Sayxunobod	442,5	82,9
Sirdaryo	1 473,2	98,9
Xovos	315,9	94,2


2023- yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 167,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **100,4** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**4 158,1** ming. so'm), Yangiyer shahri (**2 128,1** ming. so'm) va Sirdaryo (**1 473,2** ming. so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **103 220,6** mln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **34 148,5** mln. so'mni (**80,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **69 072,3** mln so'mni tashkil etdi (**119,0 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>103,2</b>	<b>102,5</b>	<b>34,1</b>	<b>80,1</b>	<b>69,1</b>	<b>109,0</b>
Guliston sh.	20,5	101,5	20,5	101,5	0,0	0,0
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	2,0	58,8	2,0	58,8	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	3,6	87,6	3,6	87,6	-	-
Guliston	9,5	72,7	0,9	77,9	8,6	64,0
Mirzaobod	24,0	282,8	-	-	24,0	237,9
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	25,5	170,2	0,4	16,2	25,1	176,9
Sayxunobod	5,6	32,3	-	-	5,6	28,6
Sirdaryo	6,6	67,9	6,6	67,7	0,0	0,0
Xovos	5,8	62,4	-	-	5,8	62,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;









– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-mart oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **34 148,5** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**16 721,8** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>16 721,8</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>3 823,6</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>2 764,2</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>2 093,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	<b>2 667,8</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>2 313,3</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>1333,6</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>17,0</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>1 514,8</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>839,0</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>60,0</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>0,0</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-mart oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **69 072,2** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **56 862,2** mln. so‘m, qo‘y va echkilar – **10 519,0** mln. so‘mni, otlar – **1 600,3** mln. so‘mni, parrandalar – **90,7** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	22 522,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	9 600,0
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	24 740,2
	Qo‘ylar	8 459,5
	Otlar	1 600,3
	Echkilar	2 059,5
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	42,9
	Tovuqlar	46,5
	Quyionlar	1,3
	Qushlar	0,0

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **646** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan **215** taga kamagan.


2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,2** % ni tashkil etib, **26 389,9** mln. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,4** % ga koʻpaydi. Bunda savdo aylanmasining **88,4** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mln. soʻm	2022- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mln. soʻm	2022- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagi tadbirkorlik subektlar, mln. soʻm	2022- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>26 389,9</b>	<b>100,4</b>	<b>23 336,8</b>	<b>99,7</b>	<b>3 053,1</b>	<b>106,0</b>
Guliston sh.	12 905,7	104,3	12 039,5	104,0	866,2	108,0
Shirin sh.	501,8	95,8	447,1	94,8	54,7	105,0
Yangiyer sh.	3 836,1	102,6	3 359,7	102,0	476,4	106,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	797,5	80,1	602,1	74,5	195,4	105,0
Guliston	1 881,3	96,2	1 679,6	94,7	201,7	111,0
Mirzaobod	1 537,8	98,6	1 442,8	98,3	95,0	103,0
Oqoltin	668,2	99,6	530,5	99,1	137,7	102,0
Sardoba	507,3	99,0	369,9	97,9	137,4	102,0
Sayxunobod	852,5	99,9	709,4	99,4	143,1	102,0
Sirdaryo	2 418,8	95,4	1 736,5	92,4	682,3	104,0
Xovos	482,9	84,3	419,7	81,9	63,2	105,0

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **60 968,2** mln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,8 %** ga kamaydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalar savdo hajmi **58 636,5** mln. so'm (o'sish sur'ati- **84,5 %**), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **2 331,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **108,5 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mln. so'm	Ulushi, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>60 968,2</b>	<b>100,0</b>
Guliston sh.	21 206,3	34,8
Shirin sh.	175,7	0,3
Yangiyer sh.	1 311,0	2,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	570,2	0,9
Guliston	119,0	0,2
Mirzaobod	4 705,3	7,7
Oqoltin	15 719,5	25,8
Sardoba	729,7	1,2
Sayxunobod	399,5	0,7
Sirdaryo	15 956,2	26,2
Xovos	75,7	0,1

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**21 968,2** mln. so'm), Oqoltin (**15 719,5** mln. so'm) va Sirdaryo (**15 956,2** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mln. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **495 843,0** mln. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,6 %** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **400 659,5** mln. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **89,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **80,8 %** ni tashkil qildi.

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBEKTLARI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Boyovut (**6,4 b.**), Guliston (**2,3 b.**) hamda Sirdaryo (**2,0 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1 212** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **104** taga kamrogan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **24** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 188** tani tashkil qildi.

	Jami mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>495 843,0</b>	<b>101,6</b>	<b>95 183,4</b>	<b>232,2</b>	<b>400 659,5</b>	<b>89,7</b>
Guliston sh.	145 548,5	89,7	6 975,9	114,2	138 572,6	88,8
Shirin sh.	1 872,7	88,2	-	-	1 872,7	88,2
Yangiyer sh.	27 419,2	88,9	170,5	89,9	27 248,7	88,9
Boyovut	70 672,8	215,8	48 606,9	6,4 m.	22 065,9	87,7
Guliston	12 780,5	124,1	6 007,5	2,3 m.	6 773,0	88,1
Mirzaobod	18 759,9	103,6	5 467,5	2,1 m.	13 292,4	85,7
Oqoltin	6 450,1	183,5	5 400,0	2,1 m.	1 050,1	106,9
Sardoba	19 240,8	106,2	5 815,1	2,0 m.	13 425,7	87,7
Sayxunobod	41 847,2	81,3	5 670,0	50,0	36 177,2	89,9
Sirdaryo	128 926,0	94,5	5 805,0	2,0 m.	123 121,0	92,2
Xovos	22 325,3	101,2	5 265,0	2,0 m.	17 060,3	87,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistika bo'limi**